



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



O`ZBEKISTONDA QISHLOQ XO`JALI HOSILINI SUG`URTALASH AMALIYOTI

Abdulladjanov Jasurbek Nurmatovich

Anotatsiya. Ushbu tezisda mamlakatimiz iqtisodiyotida qishloq xo`jaligini rivojlantirishning ahamiyati va unda sug`urtaning roli hamda sug`urta bozorining rivojlanishida qishloq qaltisliklar sug`urtasining ahamiyatli jihatlari va uning bugungi kundagi holati hamda qishloq qaltisliklar sug`urtasida mavjud bo`lgan asosiy muammolar va ularning yechimiga qaratilgan masalalar tahlili keltirilgan. Shuningdek, sug`urta faoliyatini rivojlantirishda qishloq qaltisliklar sug`urtasi bilan bog`liq bo`lgan masalalar o`rganilgan va tahlil qilingan.

Kalit so`zlar: Sug`urta bozori, sug`urta bozori faoliyati, qishloq qaltisliklar sug`urtasi, sug`urta mukofoti, ijtimoiy himoya, sug`urta qoplamasi, ixtiyoriy sug`urta, majburiy sug`urta, sug`urta nazorati. **Kalit so`zlar:** Sug`urta bozori, sug`urta bozori faoliyati, qishloq qaltisliklar sug`urtasi, sug`urta mukofoti, ijtimoiy himoya, sug`urta qoplamasi, ixtiyoriy sug`urta, majburiy sug`urta, sug`urta nazorati.

O`zbekiston Respublikasi sug`urta bozorida qishloq qaltisliklar sug`urtasini rivojlantirishda yuzaga kelayotgan asosiy muammolarni o`rganish va tahlil qilish orqali mamlakatimizning chekka qishloqlarida ham “Qishloq qaltisliklar sug`urtasi” faoliyati samaradorligini va ommabopligini oshirish hamda uning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish asosida O`zbekiston sug`urta bozorini rivojlantirishning asosiy yo`nalishlariga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.12.2023 yildagi “Qishloq xo`jaligida erkin bozor munosabatlari yanada rivojlantirishning qo`shimcha chora-tadbirlari to`g`risida”gi PF-205-sonli Farmoniga asosan 2024 yil hosilidan boshlab fermer xo`jaliklari tomonidan paxta xom ashvosini yetishtirish xarajatlarini tijorat banklari orqali Qishloq xo`jaligini davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash jamg`armasining kredit resurslari hisobidan moliyalashtirish tartibi joriy qilindi.

Ushbu Farmon ijrosini ta`minlash uchun O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.12.2023 yildagi “Paxta xom ashvosini yetishtirish va paxta yig`im-terimi xarajatlarini kreditlash hamda ularni realizatsiya qilishning qo`shimcha chora-tadbirlari to`g`risida”gi 680-sonli Qarori ishlab chiqildi. Qaror bilan “Paxta xom ashvosini yetishtirish va paxta yigim-terimi xarajatlarini hamda paxta xom ashvosini xarid qilishning yakuniy hisob-kitobini kreditlash to`g`risida”gi Nizom tasdiqlandi.

Ushbu sug`urta turi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21 fevraldagi 80-sonli Qaroriga asosan qo`ydagicha bayon qilingan:

16-klass - Boshqa moliyaviy tavakkalchiliklardan sug`urta qilish. Quyidagi hollarda:

a) sug`urta qildiruvchining biznesi (xo`jalik faoliyati) uzilib qolishi yoki sug`urta qildiruvchi tomonidan amalga oshirilayotgan biznes (xo`jalik faoliyati) ko`lami kamayishi natijasida sug`urta qildiruvchi zarar ko`rganda;

b) oldindan nazarda tutilmagan xarajatlar natijasida sug`urta qildiruvchi zarar ko`rganda (17-klassda ko`rsatilgandan tashqari);





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



v) shartnomalar tuzilishi va bajariishi bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish natijasida mazkur darajaning a) va b) bandlarida ko'rsatilgandan boshqa nobudgarchiliklarga uchraganda sug'urta qoplamasini to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari majmui.

Sug'urta obekti - O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid bo'limgan, qishloq xo'jaligi maxsulotlari yetishtiruvchilarining bo'lg'usi hosilini qisman yoki butunlay nobud bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan mulkiy manfaatlari hisoblanadi.

Ushbu klass bo'yicha sug'urta maxsulotlari asosan quyidagi ikki turga bo'lib ishlab chiqiladi:

1. Ekilgan urug'ni sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan tavakkalchiliklar natijasida unub chiqmasligidan sug'urtalash turi.

2. Unub chiqqan hosilni Sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan tavakkalchiliklar natijasida qisman yoki butunlay nobud bo'lishidan sug'urtalash turi. Bunda quydagilar sug'urta tavakkalchiligi hisoblanishi mumkin:

- a) qurg'oqchilik, yong'in, bo'ron, do'l, kuchli yomg'ir (jala), garmsel, qor yog'ishi, qorasovuq, suv toshqini, yashin urishi, uchuvechi apparatlari va/yoki ularning qoldiqlarining tushishi;

- b) zararkunanda xashoratlar va/yoki kasalliklar tarqashi.

- v) uchinchi shaxslar tomonidan sug'urta qilingan ekinlar va/yoki ularning hosili vegityatsiya davrida qasddan yo'q qilinishi yoki shikastlantirilishi.

Ushbu sug'urta turida Qishloq xo'jaligi maxsulotlari yetishtiruvchilari Sug'urta qildiruvchi hisoblanadi va sug'urta mukofotini to'lashi lozim;

Agar sug'urta shartnomasi tijorat banki tomonidan ajratiladigan kredit ta'minoti sifatida qabul qilinsa Naf oluvchi va sug'urta qoplamasini oluvchi tijorat banki hisoblanadi.



Bo'lajak xosilni sug'urta qilishning asosiy printsiplari quydagilardan iborat:

Qishloq xo'jaligi maxsulotlari yetishtiruvchilarining mulkiy manfaatlariaga to'liq sug'urta ximoyasi taqdim etish;

Qishloq xo'jaligi maxsulotlari yetishtiruvchilari tasdiqlangan biznes rejaga (Agrotexkarta) amal qilishlarini doimiy nazorat qilish;

Soxaga ilm fan yangiliklarini tadbiq qilishni rag'batlantirish va bu orqali kelajakda bo'lishi extimoli yuqori bo'lgan tavakkalchiliklarni oldini olish;

Yetishtirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni moliyalashtirishda qarz beruvchilar uchun garov ta'minoti;





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



1-jadval. Sug`urta qilishning asosiy turlari

Yuqoridagilarni inobatga olib, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.12.2023 yildagi 680-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Paxta xom ashyosini yetishtirish va paxta yigim-terimi xarajatlarini hamda paxta xom ashyosini xarid qilishning yakuniy hisob-kitobini kreditlash to`g`risida”gi Nizomning 20-bandi faqatgina Bo`lajak xosilni sug`urtalashga tegishli ekanligini aloxida ta`kidlash lozim.

Shuni tan olishimiz kerakki, mamlakatimizda fermer va dehqon xo`jaliklarining mulkiy manfaatlarini sug`urtalash yuzasidan ijobiy ishlar amalga oshirilayotganligiga qaramasdan, bu yo`nalishda o`z yechimini kutayotgan muammolar saqlanib qolayotganligini ham inkor etib bo`lmaydi. Xususan, qishloq xo`jalik korxonalarini, jumladan, fermer va dehqon xo`jaliklarini sug`urtalash tizimiga bozor mexanizmlarini joriy etish, ularni sug`urta himoyasiga qamrab olish darajasini qoniqarli holatda deb bo`lmaydi. Masalan, qishloq qaltisliklari sug`urtasida hosil sug`urtasi bo`yicha zararlilik ko`rsatkichi yuqori darajada saqlanib qolmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, qishloq qaltisliklari sug`urtasini rivojlantirishda avvalambor, halqaro talablar asosida shakllantirilgan qishloq xo`jaligi sug`urta turlarini joriy etish hamda ular bo`yicha sifatlari maxsulotlarni taklif qilish, qishloq xo`jaligi aholisiga qulayliklar yaratish maqsadida ushbu sug`urta turini targ`ib qilish va rivojlantirish istiqbollarini belgilash muhim vazifalardan biriga aylanishi darkor. Xususan, jahon amaliyoti tajribalari ko`rsatadiki, qishloq xo`jaligini turli tabiiy ofatlar va qurg`oqchiliklar tufayli yuzaga keladigan xavf-xatarlardan sug`urtalashda davlatning ishtiroti zaruriyatga aylanadi va davlat tomonidan qishloq qaltisliklari sug`urtasini har tomonlama qo`llab quvvatlanishi davlatning qishloq xo`jaligini ijtimoiy himoya mexanizmi sifatida yuzaga kelishidir.

Xulosa o`rnida shuni aytishimiz mumkinki, qishloq xo`jaligi maxsulotlari yetishtiruvchilarining bo`lajak hosilini sug`urta qilish bu nafaqat kutilayotgan havfdan himoya balki, mahsulot yetishtiruvchilar uchun kutilishi mumkin bo`lgan moliyaviy yo`qotishlarni minimallashtirish va daromad olishning asosi bo`lib xizmat qilishini untmaligimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.12.2023 yildagi “Qishloq xo`jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qo`shimcha chora-tadbirlari to`g`risida”gi PF-205-sonli Farmoni (<https://lex.uz/en/docs/6692968>).
2. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.12.2023 yildagi “Paxta xom ashyosini yetishtirish va paxta yig`im-terimi xarajatlarini kreditlash hamda ularni realizatsiya qilishning qo`shimcha chora-tadbirlari to`g`risida”gi 680-sonli Qarori (<https://lex.uz/uz/docs/6705749>).
3. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21 fevraldagagi 80-sonli Qarori (<https://lex.uz/docs/5870213>).
4. O`zbekiston Respublikasining 2021 yil 23 noyabrdagi “Sug`urta faoliyati to`g`risida” 730-sonli Qonuni (<https://lex.uz/docs/5739117>).
5. O`zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi (<https://lex.uz/docs/111189>).

